

TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Dushabayev Abdulla Musaevich

Assistant. Jizzax politexnika instituti

Annottatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunda qanchalik muhim ekanligi, ta'lim jarayoniga berishi mumkin bo'lgan ijobiy tomonlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, ta'lim, axborot, innovatsiya, raqamlashtirish.

THE USING OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION

Dushabayev Abdulla Musaevich

Assistant. Jizzakh Polytechnic Institute

Abstract: This article discusses the importance of using digital technologies in the educational process today and the positive aspects they can bring to the educational process.

Keywords: technology, education, information, innovation, digitization.

Mamlakatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun aholi ta'limini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadi ham ilg'or pedagogik tadbirlardan, texnologiyalardan keng foydalanishimizni talab etmoqda. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Biz rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy davlat qurish yo'liga qadam qo'yib, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari izchillik bilan o'tishni ta'minlar ekanmiz, faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi zaruratini teran anglaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarni egallagan insonlargina o'z oldimizga qo'ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishi mumkin ekanini hamisha o'zimizga yaxshi tasavvur etib kelmoqdamiz"

Har bir pedagog shuni anglab yetishi kerakki, o'quv jarayonini samarali bo'lishi uchun ishda o'zini oqlagan pedagogik qonuniyatlar, qoidalar, ta'limiy qoidalarni hozirgi zamon sharoitidagi yangi masalalarni hal qilishda ijodiy foydalangan holda, ulardan butunlay va o'zaro aloqada foydalanish demakdir. Yurtboshimiz

Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida aytganlaridek: “Yoshlarimizga munosib ta’lim berish, ularning ilm-fanga bo’lgan intilishlarini ro’yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishimiz, o’rta va oliy o’quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o’quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak.”[Ya’ni ta’lim bilan bog’liq barcha sahamizni raqamli texnologiyalar, samarali interfaol usullar qo’llash davr talabi hisoblanadi. Bu ishlar bosqichma-bosqich amlaga oshirilmoqda.

olish kerak. Shu bilan birga intellektual salohiyatning o’rta, sifat darajasida rivojlantirish nafaqat ta’lim samaradorligining oshishiga, shu sohada tizim takomillashuviga o’z ta’sirini o’tkazibgina qolmay, balki mazkur ijtimoiy tizimning barcha sohalarini o’rta, sifatiga ham sezilarli darajada ta’sir etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta’limdagi strategik yo’nalishlardan biri ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyati asosiy omil sifatida belgilab berilayapti. [3] O’quvchi talabalar uchun zamonaviy uslublar bilan axborot texnologiyalari orqali bilim berish muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar har bir bilim oluvchi inson uchun har qanday ma’lumotni olishda yengillik berishi amalda o’z isbotini topmoqda.

2020-yilda qabul qilingan “Ta’lim to’grisida” gi Qonunga muvofiq oliy ta’limning ko’p bosqichli tizimi yo’lga qo’yildi. Ushbu qonunning 16-moddasida ham zamonaviy ta’lim ya’ni, masofaviy ta’lim o’quv rejalari va o’quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko’nikmalarni axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog’idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan deya takidlanadi. Ko’rinib turibdiki davlatimiz ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan kengroq foydalanish yanada rivojlanmoqda.

Axborot texnologiyasining maqsadi axborotlarni inson ularni tahlil qilishi va shu asosda biror ishni bajarish bo’yicha qaror qabul qilishi uchun ishlab chiqishdan iborat. Shunday qilib, tizim - bu o’zaro bog’liq va yagona maqsadga erishish uchun ma’lum qoida asosida o’zaro munosabatda bo’ladigan unsurlar to’plami.

Bu unsurlar toʻplami oddiy unsurlar yigindisidagina iborat boʻlmay, har bir unsur ham oʻz navbatida tizim boʻlishi mumkin.[5] Axborot texnologiyalari bevosita taʼlim oluvchi uchun qulay sharoit taqdim etishi uchun ham taʼlim jarayonida hozirgi vaqtda keng joriy etilmoqda.

Taʼlim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda taʼlim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qoʻshilishini taqozo etmoqda, oʻzini yaratish imkoni mavjud innovatsion maydonda koʻrish va eng muhimi aniq yangiliklarni oʻzlashtirishdan iborat. Bu holat bugungi kunda oʻta dolzarbligi bilan muhimdir, chunki, ushbu jarayon (innovatsion jarayon) taʼlim muassasalarini yashash sharti (bevosita va koʻchma maʼnoda ham), kelajak avlodlar va pedagoglar jamoasining aloqalarini ijtimoiy himoyalash sharti boʻlib ham xizmat qiladi. Hayot taʼlim muassasalari oldiga yangi, mumkin boʻlmagandek tuyulgan vazifalarni, yaʼni eskichasiga ishlab turib, aniq yangiliklarni ishlab chiqish va ularni

Shuningdek hech qanday oʻzgarishlarni xohlamaydigan pedagoglarni ham tushunish mumkin. Bunday holatda “innovatsion jarayonlar orqasidan quvish” bugungi kun hayotimizning ajralmas qismi ekanligini ham tushunish zarur.[6] Shu sababli zamon bilan hamsanfas boʻlish bizlarni doimo taraqqiyot sari yetaklaydi. Innovatsion yaʼni raqamli texnologiyalar joriy etilishi taʼlim uchun ajralmas qismga aylanmoqda va oʻz oʻrnida yoshlar bu orqali zamon ruhiga mos ravishda taʼlim olishi kelajakda yaxshi mutaxassis boʻlishiga zamin yaratadi. Innovatsion taʼlim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi:

1. Zamonaviy, yaxshi tuzilgan tarkib, uning asosi tadbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeliklariga javob beradigan kasbiy faoliyatdagi kompetensiyalardir. Mazmuni zamonaviy aloqa vositalari orqali uzatiladigan turli multimedia materiallarini oʻz ichiga oladi.
2. Zamonaviy, innovatsion oʻqitish usullarini qoʻllash. Bunday usullar boʻlajak mutaxassisning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, oʻquvchilarni faol bilim va amaliy faoliyatga jalb etishga, bilish jarayonida

tashabbuskorlikni namoyon etishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

3. Ta‘lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi. U o‘qitishning yangi shakl va usullarini, xususan, masofaviy ta‘limni qo‘llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanishi kerak. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar o‘qitishda muayyan yondashuvlarni qo‘llash, ya‘ni yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo‘lgan talablar va maqsadlarni o‘z ichiga olgan tamoyillar asosida amalga oshiriladi.[7] Bu komponentlar ahamiyatlidir chunki yangicha texnologiyalarni o‘quv jarayoniga qo‘llash natijasida bo‘lajak mutaxassisni tez va samarali bilim olishiga zamin yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta‘limni takomillashtirish, umuman raqamli texnologiyalarni o‘qitish tizimiga joriy etish bugungi kunda yetuk kadrlar tayyorlash xususan yosh avlodni har tomonlama barkamol bo‘lib yetishishida alohida ahamiyatga ega ekanligini bilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1..Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (28.12.2018- yil.)
- 2..Shokirova. H - Ta‘limda innovatsion texnologiyalarning 3.,rni., T.: “Yangi asr avlodi”, 2013. 57
- 3.O,,zbekiston Respublikasining “Ta‘limni rivojlantrish” to,,g,,risida qonuni, 3.09.2020-yildagi O,,RQ-637-son
- 4.Hoshimov O, Tulyaganov M. Kompyuterli va raqamli-texnologiyalar. T.: “Yangi asr avlodi” 2009-yil. 30-bet